

Avtomobillar sotuvida ochiqlik va shaffoflik — ustuvor yoʻnalish


Oʻzbekistonda avtomobillar sotuvi jarayonida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash maqsadida har oylik monitoring tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Mazkur tizim doirasida har oy davomida amalga oshirilgan savdo koʻrsatkichlari chuqur tahlil qilinadi hamda yakuniy natijalar asosida rasmiy axborot eʼlon qilinadi.

Oylik savdo hisobotlari:
Kompaniyaning rasmiy veb-sayti
Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari
Rasmiy messenger kanallari
orqali keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Ushbu monitoring tizimi:

- ✓ Savdo jarayonlarining shaffofligini oshirish
- ✓ Jamoatchilik ishonchini mustahkamlash
- ✓ Bozor koʻrsatkichlarini muntazam tahlil qilish
- ✓ Strategik rejalashtirish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi.



Sun'iy intellekt avtosanoat xizmatida: O'zavtosanoat matbuot xizmatida virtual assistentlar joriy etildi

Javlonbek va Malika, kompaniyamiz matbuot kotibining sun'iy intellekt asosidagi virtual asistentlari.



Mazkur virtual assistentlar orqali siz:

“O'zavtosanoat” faoliyatiga oid dolzarb yangiliklar,

muhim e'lon va rasmiy xabarlar,

foydali ma'lumotlar hamda yangilanishlar

bilan muntazam va tezkor ravishda tanishib borishingiz mumkin.



Ushbu loyiha kompaniyada raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, axborotga ochiqlikni kengaytirish va zamonaviy kommunikatsiya vositalarini joriy etish yo'lidagi muhim qadamdir.

Cobalt avtomobillari savdosida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida kontraktatsiya jarayoni to’liq onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Mijozlar kontraktatsiya bo’yicha joriy holat, statistik ma’lumotlar va rasmiy yangiliklar bilan har soat yangilanib boriladigan axborotlar orqali tanishib borishlari mumkin.

Savdo jarayonlari uzavtosavdo.uz platformasi orqali amalga oshirilib, foydalanuvchi ma’lumotlari hamda operatsiyalar zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlari bilan ishonchli himoyalangan.

Onlayn shaklda rasmiylashtirilgan har bir shartnomada uning haqiqiyligini tasdiqlovchi maxsus QR-kod mavjud. QR-kodsiz shartnomalar rasmiy hisoblanmaydi.

Cobalt avtomobillari savdosiga oid barcha rasmiy va tasdiqlangan ma’lumotlar kompaniyaning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e’lon qilib boriladi.



Raqamli ochiqlik va yangi bosqich: “O'zavtosanoat” transformatsiyasi

Bugun avtomobil sanoati nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki **ochiqlik, shaffoflik va mijozga yo'naltirilganlik** bilan ham baholanadi. O'zavtosanoat tizimida aynan shu tamoyillar asosida keng ko'lamli raqamli yangilanishlar amalga oshirilmoqda.

Ishga qabulda yangi bosqich

Ishga qabul jarayonini soddalashtirish maqsadida maxsus

Telegram bot

(https://t.me/byd_uzbekistan_factory_jbot) ishga tushirildi.

Bot orqali mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan tanishish va rezyume yuborish mumkin.



Mazkur bot orqali:

- ◆ Bo'sh ish o'rinlari bilan tanishish
- ◆ Rezyumeni onlayn yuborish
- ◆ Tanlov jarayonlari haqida tezkor ma'lumot olish imkoni yaratildi.

Bu tashabbus inson omilini kamaytiradi, shaffoflikni kuchaytiradi va har bir nomzodga teng imkoniyat yaratadi. Endilikda ish topish jarayoni bir necha bosish bilan amalga oshiriladi.

BYD UZBEKISTAN FACTORY JAMOASIGA QO'SHILING!

Korxonamizda mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan tanishib, o'zingizga mos lavozim uchun rezyume topshirishingiz mumkin

Ishga qabul jarayonini soddalashtirish maqsadida maxsus Telegram bot ishga tushirildi.

Bot orqali mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan tanishish va rezyume yuborish mumkin.

Bo'sh ish o'rinlari ro'yxati bilan tanishish va ariza topshiring

QR kodni skaner qiling – Batafsil ma'lumot oling!

“UzAuto Motors” AJ UzAutoSavdo (<https://uzavtosavdo.uz/>) onlayn platformasining yangilangan versiyasini ishga tushirdi

“UzAuto Motors” AJ Chevrolet brendi avtomobillarini masofadan turib xarid qilish imkonini beradigan raqamli savdo platformasi UzAutoSavdoning (<https://uzavtosavdo.uz/>) yangilangan versiyasini ishga tushirilganini ma’lum qiladi.

Tizimni yanada takomillashtirish ishlari, avvalo, mijozlar uchun qulaylikni oshirish, funksionallikni yaxshilash hamda saytning yanada yuqori darajada shaffofligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

UzAutoSavdo (<https://uzavtosavdo.uz/>) platformasining yangilangan versiyasi quyidagi qulayliklarni o’z ichiga oladi:

- yangilangan va foydalanuvchi uchun tushunarli, intuitiv interfeys;
- smartfonlar va kompyuterlar kabi barcha turdagi qurilmalarga moslashuvchan dizayn;
- ro’yxatdan o’tish va tizimga kirish jarayonlarining soddalashtirilgan ko’rinishi;
- avtomobil modellari qatorining yaxshilangan vizualizatsiyasi;
- mavjud avtomobillar katalogining kengaytirilgan shakli;
- takomillashtirilgan qulay navigatsiya, yaxshilangan axborot tuzilma va boshqa funksiyalar.

Yangilangan platformaning asosiy afzalliklaridan biri – bu shartnomani to’liq masofadan turib rasmiylashtirish imkoniyatidir. Endi mijozlar avtomobil tanlashdan tortib, shartnoma olish va to’lovni amalga oshirishgacha bo’lgan barcha bosqichlarni onlayn tarzda amalga oshirishlari mumkin. Dilerlik markasini faqat avtomobilni qabul qilib olish uchun borish kerak bo’ladi.

Hozirda sayt test rejimida ishlamoqda. Tez orada platformada yangi qulay funksiyalar ishga tushiriladi — masalan, test-drayvga yozilish va avtomobilga texnik xizmat ko’rsatish uchun onlayn ro’yxatdan o’tish imkoniyati taqdim etuvchi funksiyalar paydo bo’ladi. Har bir foydalanuvchi ID.gov (<https://id.egov.uz/>) tizimi orqali ro’yxatdan o’tib, UzAutoSavdo tizimi orqali ko’rsatiladigan barcha xizmatlardan foydalanishi mumkin bo’ladi.

Ta’kidlash joizki, loyihani amalga oshirish “UzAuto Motors” AJning zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mijozlar tajribasini yaxshilash va ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan raqamli transformatsiya strategiyasining bir qismidir.



PR TEAM — YANGI BOSQICH, YANGI NATIJA!

“O‘zavtosanoat” AJ va uning tarkibiy korxonalari faoliyatini yanada samarali, ochiq va tizimli yoritish maqsadida PR TEAM jamoasi tashkil etildi.

Mazkur jamoa quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

- ◆ Kompaniya va tarkibiy korxonalar faoliyatiga oid dolzarb yangiliklarni tezkor va sifatli yoritish
- ◆ Yagona axborot siyosatini shakllantirish
- ◆ Biznes-rejalar va kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish
- ◆ Brend imijini mustahkamlash va ijtimoiy ishonchni oshirish
- ◆ Media va jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

PR TEAM — bu shunchaki axborot tarqatish emas, balki strategik kommunikatsiya markazi. Endilikda barcha yangiliklar, rejalar va istiqbolli loyihalar puxta ishlab chiqilgan strategiya asosida, jamoaviy hamkorlikda amalga oshiriladi.